

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

## IQTISODIY TAKOMILLASHISHDA TADBIRKORLIK G'YOYALARI VA SOLIQNING AHAMIYATI

Nuriddin Murodov

+998 90 317 53 30 G-mail: [nuriddin.murodov0911@gmail.com](mailto:nuriddin.murodov0911@gmail.com)

Ilmiy rahbar: Ashurova N

**Annotatsiya:** Tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mayjud muammolarni hal qilishda va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. U ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rnlari yaratib, aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ham, O'zbekistonda ham har yili yaratilayotgan yangi ish o'rnlarining yarmidan ortig'i kichik va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri keladi. Tadbirkorlik aholining ish bilan bandligi, mehnat va iqtisodiy faolligining o'sishi va buning natijasida uning daromadlarining oshishiga katta hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, iqtisod, jamiyat, soliq, mulk, taraqqiyot.

## ENTREPRENEURIAL IDEAS IN ECONOMIC DEVELOPMENT AND THE IMPORTANCE OF TAXATION

**Abstract:** Entrepreneurship plays a major role in solving existing problems in the social and economic spheres and in the socio-economic development of the society. It creates new jobs in the fields of production, performance of work, and services, and is of great importance in providing employment to the population and reducing unemployment. More than half of the new jobs created every year both in developed countries and in Uzbekistan belong to small and private entrepreneurship. Entrepreneurship greatly contributes to the growth of the population's employment, labor and economic activity and, as a result, to the increase of its income.

**Key words:** entrepreneurship, economy, society, tax, property, development.

## ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ И ЗНАЧИМОСТЬ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ

**Аннотация:** Предпринимательство играет важную роль в решении существующих проблем в социальной и экономической сферах и в социально-экономическом развитии общества. Он создает новые рабочие места в сферах производства, выполнения работ и услуг, имеет большое значение в обеспечении занятости населения и снижении уровня безработицы. Более половины новых рабочих мест, создаваемых ежегодно как в развитых странах, так и в Узбекистане, принадлежат малому и частному предпринимательству. Предпринимательство в значительной степени способствует росту занятости, трудовой и экономической активности населения и, как следствие, увеличению его доходов.

**Ключевые слова:** предпринимательство, экономика, общество, налог, собственность, развитие.

Tadbirkorlarning ma'lum qismi oyoqqa turib, yanada rivojlanishi oqibatida ular mulkdorlarga aylanadilar. Bu esa jamiyatda yangicha fikrlaydigan, harakat qiladigan yangi avlod-tadbirkorlar, mulkdorlar tabaqasining shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslar davlatning ijtimoiy tayanchi va iqtisodiy taraqqiyot manbayi hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ham ishtirok etadilar. Shuning bilan birga tadbirkorlarning o'zлari ham doimiy izlanishda, mahalliy va xorijiy hamkasabali, hamkorlari, turli soha vakillari bilan muloqotda bo'lib, tajriba ortirib, o'z kasbiy, madaniy, ma'naviy saviyalarini oshirib boradilar. Tadbirkorlik inson qobiliyatini ro'yobga chiqarishga yaxshi imkoniyatlar yaratadi va uni rag'batlantiradi. Shunday qilib, tadbirkorlik insonlarning o'zini o'zi anglashiga ko'maklashadi, dunyoqarashini kengaytiradi, o'zgartiradi va natijada jamiyatning ijtimoiy-madaniy darajasining o'sishiga olib keladi.

Tadbirkorlar qishloqlarda, mahallalarda ishlab chiqarish, savdo, umumiyligi ovqatlanish va boshqa xizmat ko'rsatish korxonalari barpo etib, qishloq infratuzilmasini rivojlantirib, qishloqlar, mahallalar qiyofasini o'zgartirib yuboradilar. Bundan tashqari, tadbirkorlik ijtimoiy sohada keng kirib bormoqda: xususiy va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda bolalar bog'chalari, mehribonlik uylari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarish va ularga xizmatlar ko'rsatish, sogiiqni saqlash va sog'lomlashtirish, o'quv va boshqa ijtimoiy soha muassasalari tashkil etish va ularni rivojlantirish, uy-joylar qurish va ularni ta'mirlash, aholini ichimlik suvi va gaz bilan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

ta'minlash ishlari bilan bevosita shug'ullanib, ijtimoiy muammolarni yechishga katta hissa qo'shadi.

Tadbirkorlik subyektlari xayriya ishlarida ham faol qatnashib, ijtimoiy soha muassasalari, nogironlar, kam ta'minlangan oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga yordam ko'rsatishda ham muhim o'rinni egallaydi. Tadbirkorlik subyektlari mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yaratib, mamlakat ichki bozorini to'ldiradilar. Natijada bozorda taklif miqdor, sifat, assortiment jihatidan yaxshilanadi, xaridorlar uchun tanlash va talabni qondirish imkoniyatlari kengayadi. Bu borada tadbirkorlik muvofiqlashtirish vazifasini bajarish, talab bilan taklifni o'zaro muvofiqlashtirish, narxlarni barqarorlashtirish, bozorda muvozanat o'rnatish va uni ushlab turish, mavjud ehtiyojni kengaytirish va to'laroq qondirishga xizmat qiladi. Shuning bilan birga tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning shakllanishi, rivojlanishida va mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ko'tarish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini pasaytirish, faoliyat samaradorligini oshirishda muhim rol o'yaydi.

Mamlakatda importni qisqartirish va eksportni kengaytirishda tadbirkorlik subyektlarining roli ortib bormoqda. Ular, bir tomondan, import o'rnnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarib, valyutaning tashqariga chiqib ketishini qisqartirish va mamlakat iqtisodiy-moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, ikkinci tomon dan esa, eksportbop mahsulotlar chiqarish, ularni tashqi bozorlarda sotib, mamlakat eksport salohiyatini ko'tarish va valyuta tushumlarini oshirishda ham salmoqli o'rinni egallaydilar.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklari davlat buyurtmasini bajarishda ham ishtirok etadilar. Ma'lumki, O'zbekistonda davlat buyurtmasi bo'yicha paxta va g'alla yetishtirishda fermer xo'jaliklari yetakchilik qiladilar. Bundan tashqari, kichik va o'rta korxonalar yirik korxonalarning ayrim buyurtmasini ham bajarib, ularni to'ldiradilar. Yirik korxonalar ommaviy mahsulotni katta miqdorda ishlab chiqarishga moslashganliklari tufayli asosiy mahsulotning ayrim detallari, ehtirot qismlari, boshqa qo'shimcha narsalami kichik seriyalarda ishlab chiqarish ular uchun ortiqcha tashvish hisoblanadi. Yirik korxonalar uchun shunday narsalami o'zlari ishlab chiqargandan ko'ra, ularni boshqa korxonalardan olgan ma'qul. Shu boisdan ular o'zlarining ishlab chiqarishlari uchun kerakli ayrim narsalami ishlab chiqarish va yetkazib berishni, asosan, kichik va o'rta korxonalarga topshiradilar. Bu borada O'zbekistonda

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

rivojlangan va qo'llab-quvvatlanayotgan kasanachilik ham muhim rol o'ynaydi, Shuning uchun kichik va o'rta korxonalar yirik korxonalar va, umuman, iqtisodiyot tarmoqlarini o'zaro bog'lab, butun iqtisodiyotni yaxlit bir tizim darajasiga ko'tarishda katta ahamiyat kasb etadilar. Kichik, o'rta, xususiy tadbirkorlik subyektlarining ana shu vazifasi e'tiborga olinib, respublikada mahalliylashtirish dasturlarini amalga oshirishda ularga keng o'rinn berilgan.

Tadbirkorlikning innovatsion vazifasi XX asr o'rtalarida shakllanib, hozirgi kunda uning roli ortib bormoqda. Tadbirkorlikning bu vazifasi mamlakatlarning innovatsion (axborot-industrial) taraqqiyot davrga kirishi bilan boshlanib, ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlari va axborot rolining ortib borishida namoyon bo'ladi. Innovatsiya bazasining shakllanishi va kengayishi tashkiliy-xo'jalik novatorligi va shu yo'nalishda tadbirkorlikning rivojlanishi bilan bog'liq.

Tadbirkorlikning yaratuvchilik vazifasi ham jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Uning bu vazifasi yangi qiymat va yangi bozorlar yaratish, yangi qiyofadagi inson - tadbirkorlar, mulkdorlami shall antirishda namoyon bo'ladi. Tadbirkorlar mamlakatda milliy mahsulot yaratadilar va milliy boylikni ko'paytiradilar. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulotning qariyb yarmi, ayrim mamlakatlarda esa undan ham ko'prog'i kichik biznesga to'g'ri keladi. O'zbekistonda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining hissasi hozirgi kunda 48 foizdan oshdi va u yildan-yilga o'sib bormoqda.

Tadbirkorlik subyektlari yangi taklif yaratish, mavjud taklifni kengaytirish, uni yangicha uyg'unlikda taqdim etish yo'li bilan mavjud ehtiyojni boyitish, yangilarini yuzaga chiqarish va mavjud bozorni modifikatsiya qilish, yangilarini shakllantirish, jozibador bozorlami topish va o'zlashtirish - bularning hammasi tadbirkorlikning yaratuvchilik yo'nalishlari hisoblanadi.

Tadbirkorlik ishlab chiqarishni qayta qurish, ishlab chiqarish omillari (mehnat, mehnat qurollari, mehnat predmetlari)ni yangicha uyg'unlikda birlashtirish va tashkil etish, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarini samaraliroq muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarishni sifat jihatidan yangi, yuqori bosqichga ko'tarishga katta hissa qo'shadi. Bu esa ishlab chiqarishni amalga oshirish va rivojlantirish uchun yangi, qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, ularni ro'yobga chiqarish esa mavjud quvvatlarning unumdarligini oshirishni, qo'shimcha mahsulot ishlab

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

chiqarish va samaradorlikning o'sishini ta'minlaydi. Tadbirkorlik shu paytgacha ishlatilmay kelgan aholi jam g'armalari, mahalliy resurslar, ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar, xorijiy investitsiyalami ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga faol jalg etib, ishlab chiqarishni kengaytirish, milliy mahsulot va boylikni ko'paytirishga olib keladi. Tadbirkorlik nafaqat shaxsiy daromad manbayi, balki davlat uchun ham salmoqli daromad manbayi bo'lib xizmat qiladi. Davlat budgeti tushumlarining anchagina qismi tadbirkorlik sektoriga to'g'ri keladi. Demak, tadbirkorlik budgetni to'ldirib, davlatning kuch-qudratini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini mablag' bilan ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli Tadbirkorlik faoliyati va uni amalga oshirishning tashkiliy huquqiy shakllari O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligming kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Qonunchilikka ko'ra, tadbirkorlik faoliyati bilan yuridik va jismoniy shaxslar shug'ullanishi mumkin. Tashkiliy huquqiy shakl tadbirkorlik faoliyati miqyosi tavsifi, xususiy kapital miqdori, loyihami amalga oshirish muddatlari va yana bir qator omillarga asoslanib tanlanadi. Boshqa tomondan esa tashkiliy huquqiy shaklni to'g'ri tanlash loyihami amalga oshirish imkoniyatlarmi to'la ta'minlashi kerak. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati 2.2.4-chizmada ko'rsatilgan shakllarda amalga oshishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, amaldagi qonunchiligidanizga ko'ra notijorat tashkilotlari ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Ammo ularning asosiy maqsadi bevosita foyda olish emas. Tashkiliy huquqiy shaklni to'g'ri tanlash ko'p omillarga bog'liq: tadbirkordagi mavjud pul va moddiy resurslar. uning tashkiliy qobiliyati va shaxsiy tajribasi, faoliyat sohasi, tadbirkorlik loyihasining hajmi va ko'lami, loyiha amalga oshirilayotgan bozor sharoitlari. Bunda eng muhim loyihaning tavakkalchilik darajasi hajmi, ya'ni tadbirkor o'z zimmasiga olishi mumkin bo'tgan majburiyat katta ahamiyatga ega.

To'liq o'rtoqlik - bu bir necha jismoniy yoki huquqiy shaxsning o'zaro shaitnomaga asosida foyda olish uchun yuritadigan tadbirkorlik faoliyati. To'liq o'rtoqlik barcha

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5**

a'zolari shchrikchilik bo'yicha barcha majburiyatlami o'z bo'yniga oladi va o'z mulklari bilan teng ravishda javob beradi. To'liq o'rtoqlik mulki a'zolar qo'ygan ma'lum foizdagi qo'yilmalar asosida vujudga keladi va foyda ana shu qo'yilmalar foizlariga qarab taqsimlanadi. To'liq o'rtoqlik shirkati uning hamma a'zolari saylagan bitta boshqaruvchit tomonidan boshqariladi. Ammo har bir a'zo shirkat nomidan ish ko'rish huquqiga ega. Moddiy javobgarligi darajasi, sheriklaming bir-biriga ishonchi zarurligi, kapitalning faqat shaxsiy qo'yilmalardan iborat ekanligi shuni ko'rsatadiki, bunday tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik faoliyati faqat mayda biznesga xos va hozirgi paytda keng qo'l'anilmayapti

### **Xulosa:**

Men ushbu mustaqil ishni o'rganish davomida Tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy huquqiy asoslari bilan birgalikda o'rganiladi. Bu faoliyatning iqtisodiy ahamiyati, o'z ichiga olgan xizmatlar, mahsulotlar yoki ishlab chiqarish jarayonlari orqali moliyaviy daromad olish, ish o'rirlari yaratish va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishdir. Tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy ahamiyati esa, jamiyatga foyda olib keluvchi mahsulotlar va xizmatlarni ta'minlash orqali jamiyatning istiqbolligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik faoliyati orqali ish o'rirlari yaratilishi va ishlab chiqarish jarayonlarining tashkili jamiyatning rivojlanishiga va insonlarning maishat darajasining oshishi uchun juda muhim ekanligini o'rgandim.

Tadbirkorlik faoliyati tashkiliy huquqiy asoslari bilan ham birgalikda o'rganiladi. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirish uchun tadbirkorlarga tartib, huquq va majburiyatlar berilishi, shuningdek, maqsadlarni amalga oshirish uchun qonunchilik va huquqiy muhofazani ta'minlash lozimdir.

Bunday huquqiy asoslar tadbirkorlarga qonun hujjatlari orqali beriladi va ular tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda huquqiy himoya oladilar. Shuningdek, tadbirkorlar va ularning sheriklari o'rtasida shartnoma va aniq shartlar bilan kelishilgan shartnoma bo'yicha kelishuvlar ham huquqiy asoslar asosida amalga oshiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O'zbekiston, 1995.

2. Kichik biznes va tadbirkorlik: (oliy o'quv yurtlarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanm a) / M.R. Boltaboyev (va boshq.); 0 'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Noshir, 2011. — 280 b.

3. <https://uz.periodicalfinance.com/10584261-organizational-and-legal-forms-of-entrepreneurial-activity>